

Boshlang‘ich Sinf O‘Quvchilarini Axloqiy Jihatdan Tarbiyalashda Milliy Urf-Odat Va Qadriyatlarning Ahamiyati

Zeripbayeva Kumushoy Jamoladdin qizi

Ajinyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annontatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlardan foydalangan holda axloqiy jihatdan tarbiyalashning dolzarbliji va tadqiqotning amalga oshirish yo‘llari xususida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность нравственного воспитания учащихся начальных классов с использованием национальных обычаяев, традиций и ценностей, а также пути реализации данного исследования.

Annotation: This article discusses the relevance of morally educating primary school students by utilizing national customs, traditions, and values, as well as the ways to implement this research.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, milliylik, urf-odat, qadriyat, axloqiy tarbiya, xalq madaniyati, bayramlar, an’anlar.

Ключевые слова: Патриотизм, национальность, обычаи, ценности, нравственное воспитание, народная культура, праздники, традиции.

Keywords: Patriotism, nationality, customs, values, moral education, folk culture, holidays, traditions.

Milliylik, urf-odat va qadriyatlarning mavjudligi, har bir xalqning, milliy tarbiyalash vositalari saqlanib qoliganligidan dalolat beradi. Millat borki, uning urf-odat va qadriyatlari yashaydi. Negaki, mustaqil bo‘lgan har bir davlat, farzand tarbiyasida muhim sanalgan, an’ana sifatida ajdodlardan avlodlarga yetib kelayotgan, o‘z tarixining, nodir namunalardan, milliy tarbiyaning namunasi sifatida foydalanishadi. Chunki, hech bir xalqning madaniyati, an’analari o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Tarbiyalash jarayonlarining, muhim bo‘lagi bo‘lgan qadriyatlар, xalqning o‘zligini ulug‘ tutishini, milliy tarixining yaratilishida, kelajagini qurishda muhim omil sifatida qarashadi.

“Yangi O‘zbekiston” ni barpo etish xalqimizning olivjanob maqsadini amalga oshirishga qaratiladi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev so‘zi bilan aytganda “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir. – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat.” [2] Jamiyatimiz, iqtisodiy va ma‘naviy tamoyillarga asoslangan holda, rivojlangan davlatlar reytingida, ta’lim sifatida bo‘yicha yuqori pog‘onalarni zabit etishi uchun, albatta, kelajak avlod tarbiyasida milliy urf-odat va qadriyatlarmizning o‘rnini beqiyosdir. Komil shaxsni tarbiyalashda, ularga beriladigan milliy tarbiyaning ahamiyati toki, ularni haqiqiy “o‘zbek kishisi” sifatida voyaga yetishida qadriyatlarmizning tub mohiyatini tushunib yetishlari, ularni insoniylikning go‘zal fazilatlari bilan ruhlantirgan holda milliy g‘oya tuyg‘usini singdirgan holda ulg‘aytirish an’analaramizni mohiyatini, qadriyatlarmizning asl maqsadini tashkil etadi.

Yosh avlodga, o‘zbek xalqining ming yillik tarixi va madaniyatini, buyuk ajdodlarimizning “Renessans” (uyg‘onish) davri ilm-fani va madaniyatining yuzaga kelishida o‘z kashfiyotlari bilan uyg‘onish davri madaniyatini yaratish uchun ilmiy izlanishlari natijasida, dunyo sivilizatsiyasining vujudga kelishida tutgan munosib o‘rni, shuningdek, oila tarbiyasida qadriyatlarning asl namunalari aks ettirilgan va inson qadrini ulug‘lovchi g‘oyalarini oldinga surgan bilan boshqa millat xalqlarining qadriyatlardan aynan shu jihatlari bilan farq qiladi.

Urf-odat - ma‘naviy hayot hodisasi sifatida an’anaga aylangan, umumxalq tomonidan qabul qilingan, tarixan tarkib topgan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyil. (Masalan, boshlang‘ich sinf



o‘quvchilarini axloqiy jihatdan tarbiyalanishda o‘zbek xalqida kattalarga salom berish, hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, tabiat boyliklarini unumli foydalanish va isrof qilmaslik, mehmon kelganda, ochiq yuz bilan kutib olib, izzat-ikrom bilan kuzatish va boshqalarini o‘z ichiga oladi.) Urf-odat va rasm-rusumlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisining tarkibiy qismi hisoblanadi.


Qadriyatlar - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlarga tayangan holda axloqiy jihatdan tarbiyalash to‘g‘risida so‘z borganda oila tarbiyasiga to‘xtalib o‘tiladi. “O‘zbek oilalarida yosh avlodni do‘slik, ahillik, birlik ruhida tarbiyalanishiga qadimdan katta ahamiyat berib kelingan. Xalqning eng ilg‘or vakillari do‘slikni doimo qadrlaganlar. «Do‘stsiz boshim - tuzsiz oshim», «Birlashgan kuch yengilmas», «Do‘stni boshingga kulfat tushganda sina», «Kuch — birlikda» singari maqollarda xalq o‘zining eng ezgu niyatlarini ifoda etgan.” [8:113] O‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasida maqol, ertak, matal, tez aytish va boshqa badiiy janr turlaridan foydalilanadi. Ko‘rib turganingizdek, yuqoridagi, har bir maqol urf-odat va milliy qadriyatlarimizning asl maqsadini o‘zida mujassam etgan. Ushbu maqollar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini do‘stona ruhda tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi maqollar qatoridan o‘rin egallagan. Asrlar davomida shakllangan milliy urf-odat va qadriyatlarimizning ahamiyatini, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xalq pedagogikasi va ilmiy-badiiy janrlarda isbotini ko‘rish mumkin.

“Boshlang‘ich sinflardan boshlab murg‘ak qalblarda axloq-odobga oid sodda tushunchalardan boshlab sekin-astalik bilan milliy qadriyatlarimiz elementlarini singdirib borish katta ahamiyatga ega, ular ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zbekona ibratomuz urf-odatlarimizdan xabardor bo‘lib boradilar. O‘quvchilar insoniy fazilatlarni kichik hikoyalar, tanbehtar va rivoyatlar orqali anglab, axloqan tarbiyalanadilar.” [3:225;235] Bolani yoshlikdan tarbiyalash o‘zini anglab yetgan, yoshni tarbiyalashdanda samarali va bunda xalqimizning ta’rifi bilan aytganda, “Bola boshidan...” deganlaridek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini, tarbiyaning axloqiy me’yorlarini anglab yetishlari uchun, milliy urf-odat va qadriyatlarimiz to‘g‘risidagi tushunchalarni erta yoshda shakllantirib borish zarur. Barkamol avlod vakillarini, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi zamon va qadriyatlarimizning birdan bir maqsadini ro‘yobga chiqaradi.

“Shaxs kamolotida tarbiyaning o‘rni haqida Demokritning quyidagi fikri qimmatlidir: Insonni inson qilib o‘stiruvchi narsa bu tarbiyadir” [6:63] Keltirilgan ushbu fikrlar inson kamolotida bilimning o‘rni naqadar ulug‘vor bo‘lsa, tarbiyaning ahamiyati bilan barobar bo‘lmog‘i lozimligini anglatadi. Bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiradurg‘on, ajralmaydigan, bir-birisiz mavjud bo‘ladigan bo‘lsa, birisiz halokatga uchraydigan egiz tushunchalardir. Faylasuf, psixolog, biolog, sotsiolog va antropolog sifatida faol ingliz polimati Gerbert Spenser qarashlari bilan aytganda “Tarbiya ta’limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi.” Ajdodimiz ham bekorga “Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin” yoki “Olim bo‘lma, odam bo‘l!” deyishmagan. Bu so‘zlar zamirini izohlaydigan bo‘lsak, hikmatli so‘zlar o‘quvchilarini axloqiy jihatdan tarbiyalanish uchun yorqin namuna sifatida keltirish mumkin.

Tabobat ilmining sultonii, butun dunyo xalqlari uchun tibbiyotning sir-sinoatlarini ochgan ulug‘ alloma “Abu Ali ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo‘lmish “Tib qonunlari”, “Ash-shifo” va boshqa asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Ibn Sino ta’limotiga ko‘ra, odamga do‘s tutinishning uch xil yo‘li bor: “Birinchidan, har qanday qiyinchilik bo‘lishiga qaramay, kishi o‘z do‘sini falokatdan qutqarishni, ikkinchidan, g‘oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiyl bo‘lgan chinakam va doimiy do‘slikni va uchinchidan esa kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o‘zining shaxsiy manfaatini qondirish ko‘zdautilgan do‘slik bo‘ladi”, - degan fikrlarni bildirgan. Insonni ulug‘lash eng oliyanob qadriyatdir. Ushbu qadriyatni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga singdirish metodikasini “do‘slik” obrazi orqali shakllantirish, (ya’ni insoniylik tushunchasi



mohiyatini tushunib yetish) ularni kelajakda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini to‘liq anglab yetishlari uchun turtki bo‘ladi.

2019-yilda 3-sinf o‘quvchilari uchun nashr etilagn darslikda keltirilgan “Milliy urf-odat va bayramlar” mavzusidagi ma’lumotlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tarbiyalashdagi milliy urf-odat va qadriyatlarimizning ahamiyatini va vazifalarini izohlaymiz.



Quyidagi rasmlarda qanday urf-odat va marosimlar tasvirlangan?



Topshiriq Milliy urf-odat va marosimlarni aks et-tiruvchi rasm chizishga harakat qiling.

“Navro‘z - qadimiy xalq bayrami. Ajdodlarimiz ko‘klam kelishi va tabiatning uyg‘onishini yangi yil sifatida bayram qilganlar. Navro‘z «nav» - yangi, «ro‘z» - kun demakdir. Navro‘z milliy urf-odatlar namoyishi, mehr-oqibat bayramidir.

9-may - Xotira va qadrlash kuni. Bu kunda o‘tganlar xotirasi yodga olinadi, keksalar va mehrga muhtojlar holidan xabar olinadi.


1-sentabrda qutlug‘ sana - Mustaqillik kunini bayram qilamiz.” [4:78]

O‘zbek xalqi uchun milliy bayramlar sifatida nishonlanadigan muhim sanalar o‘quvchilarining axloqiy kamolotida qanday o‘rni tutishi mumkin? - savoliga quyidagicha javob berib o‘tamiz. Navro‘z umumxalq bayramini olaylik, unda mujjassamlashgan urf-odat va qadriyatlар o‘quvchilarini milliylik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Navro‘z umumxalq bayrami deb atalishining sababi, ushbu bayram Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg‘oniston va xalqimizda yangil yil (yangi kun) sifatida keng nishonlanishidir.

Navro‘z bayramida amalga oshiriladigan urf-odatlar:

- odamlar bir-biriga shakar va shirinliklar hadya qilishgan; (hayotingiz ham shirin bo‘lsin degan ma’noda)
- bir-biriga suv sepish; (bu yil suv ko‘p bo‘lsin, hosil yaxshi bo‘lsin degan ma’noda)
- sumalak va boshqa milliy ovqatlarni tayyorlash; - bahor gullarini yig‘ish;
- milliy liboslar kiyish;
- xalq o‘yinlar va milliy raqslar.
- sumalakka ezgu niyat bildirib tosh tashlash.

O‘zbek xalqining urf-odatlari milliy bayramlarida o‘z aksini topgan. Har bir urf-odatlar o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda ahamiyati katta. Chunki, insonlarni bir-birlariga ezgu niyatlarini bildirish va qadrlashlarini kuzatgan bolalarda, insonparvarlik hissi uyg‘onadi. Suv sepishlari, suv ko‘p bo‘lishini ifodalashining sababi, o‘zbek xalqi mehnatsevar xalqdir. Bu esa o‘quvchilarida mehnatda poklanish va muhabbat tushunchasini shakllantiradi. Sumalak - niyatlar ummoni va turli taomlar tayyorlash o‘zbek xalqining azaliy qadriyatlardan biri va bu mehmondo‘stlik an’analarni o‘z ichiga oladi. Gullar - nafosat tarbiyasining namunalari va milliy liboslar urf-odat va qadriyatlarmizga hurmatni anglatadi. O‘quvchilarida nafosat tarbiyasini va qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatadi. Xalq o‘yinlari o‘quvchilarini axloqiy tarbiyasida, o‘zligini anglash, o‘tmish hayotining,



bugungi kungacha taraqqiy etish bosqichlarini tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi. Har bir milliylik namunasi, o'quvchilar axloqiy tarbiyasida o'zining ijobil ta'sir ko'rsatadi.

2023-yil 3-sinf uchun nashr etilgan Tarbiya darsligidagi "An'analar va madaniyat" mavzusida keltirilgan manbalarni tahlil qilamiz.

"An'ana" so'zi arab tilida "nasldan naslga o'tadigan qoidalar" degan ma'noni bildiradi. An'ana bir avloddan keyingi avlodga, kattalardan kichiklarga o'tib kelayotgan qadriyatlardir. An'analarни ursodatlar, milliy liboslar, taomlar va hunarmandchilikda ko'rish mumkin. Milliy an'analar tufayli o'tmishimiz bugungi kunda yashab, kelajakka qarab qadam bosadi. Katta avlodlarning hikmatlari yosh avlodga o'tishda davom etadi. [7:64]




1. Rishton lagani. 2. Shahrisabz lagani. 3. G'ijduvon lagani. 4. Xorazm lagani.
5. Afrosiyob lagani. 6. Urgut lagani. 7. Andijon lagani.

Hunarmandchilik asrlar davomida bizgacha yetib kelayotgan haqiqiy san'at namunasi va xalqimiz uchun tom ma'noda an'anadir. Ma'lumotlar tahliliga e'tibor qaratsak, avvalo tarixiy qadriyatlarning tarkib topishida madaniyat va madaniy obye'ktlarning ham o'rni beqiyos. O'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda, an'ana va qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasiga sindirish, asrlar davomida milliylik timsollarini saqlashga o'rgatish, ularni o'tmishi va buguniga befarq bo'limgan holda tarbiyalanishi uchun zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarini axloqiy yuksalishida ursodat va an'analarining salmoqli o'rni turli variat va yo'naliishlarda ko'rib chiqilib, tahlil qilindi. Zero, millat bor ekan, uning milliy erki ham barhayotdir.

"Qadriyatlар, – deydi yutimizning taniqli olimi Abdurahim Erkaev, – inson, jamiyat uchun ahamiyatli, ularning turli ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan, hayotini yengillashtirishga, yuksaltirishga, ijtimoiy muhitni va munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan narsalar, predmetlar, ijobil g'oyalar, me'yorlar, ideallar, tamoyillar, mezonlardir. Ularni moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lish mumkin. Moddiy qadriyatlarga tabiat, tabiiy boyliklar, mehnat vositalari, zavod-fabrikalar, moddiy mahsulotlar, shahar, qishloqlar va shu kabilalar kiradi. Ma'naviy qadriyatlarga dunyoqarash va e'tiqod asoslarini tashkil etuvchi milliy-falsafiy, diniy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, badiiy, konkret-ilmiy g'oyalar, bilimlar va qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar kiradi" [1:76;77] Bundan ko'rinib turibdiki, moddiy qadriyatlар farzand voyaga yetgunga qadar ota-onा tomonidan ta'minlanib, tarbiyalansa, ma'naviy qadriyatlarning tub ma'nosi va ahamiyati boshlang'ich sinflardan boshlab shakllantiriladi. O'zbek xalqining jamiyki, an'ana va qadriyatlari insonni qadrini ulug'lashga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqining ursodat va qadriyatlarning o'rni va ahamiyati, ilmiy adabiyotlar va ikki avlod darsligi misolida tahlil etildi. Shulardan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga



olgan holda, milliy qadriyatlar tizimini ishlab chiqishni va buni an'ana sifatida maktab darsliklariga kiritishini vaqtı yetdi, deb, hisoblaymiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qadriyatlar ro'yxati:

- Vatanparvarlik (Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash);
- milliy g'urur (milliylikka hurmat va uni asrash)
- oila tarbiyasi (farzand tarbiyasi, urf-odat va qadriyatlarga asoslanishi)
- ota-onani e'zozlash (ota-onani tinglash, nasihatlarini ilib olish va kuni kelib ularga mehribon, solih farzand bo'lish);
- Insonparvarlik (insonlar bilan yaxshi munosabatga kirishish);
- Halollik (halol mehnat orqali, o'quvchilarni halol luqma yeyishga o'rgatish)
- Mehnatsevarlik (o'quvchini mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash);
- Sahovatl bo'lish (sinfidoshlariga va boshqalarga nisbatan sahovatl bo'lish)
- Do'stona ishonsh (atrofdagilarga do'stona munosabat bo'lish, yaxshi suhbatdosh va yelkadosh bo'lish);
- tabiatni sevish (har bir tabiiy boyliklarni va tabiatni asrab-avlaylash);
- milliy kiyinish madaniyati (hozirgi kunda o'tkazilayotgan Juma kuni "Milliy liboslar kuni" ni tashkil etilishi);

Toki ushbu qadriyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliyligimizga bo'lgan hurmat ruhida o'sishga xizmat qilsin. O'quvchilar o'zligini anglab yetganida, haqiqiy qadriyat namunalari asosida ulg'ayganlarini tushunib yetishi va tub mohiyatini anglab yetishi uchun tayanch vazifasini o'tasin. Ushbu qadriyatlar ro'xyati shular bilan cheklanib qoladi, degani emas. Keng jamoatchilik, ilmparvar va qadriyatshunos professor olimlar muhokamasiga qo'yilib, amaliyotga joriy etilishi, o'zbek xalqining yer yuzida xalq sifatida shakllanganidan to yuksak cho'qqilarni zabit etishda ham ushbu, biz faxrlanib aytadigan urf-odat va qadriyatlar biz bilan birga yelkadosh bo'lajak!

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Erkinov. Ma'naviyatshunoslik. 2-tom. – T.: “Ma'naviyat”, 2018.
2. <http://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/shavkat-mirziyoyev-jamiyat-hayotining-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir/>.
3. J. Hasanboyev va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o'quv yurtiari uchun darslik. 0'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lif vazirligi. - Toshkent: «Noshir», 2016. - 456 b.
4. M. Xoliqova, Sh. Ergasheva. Odobnoma. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 3-sinfi uchun darslik / Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchchi nashri — Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. — 96 b.
5. O. V. Usmanova. Y. V. Rislyukova. Tarbiya. 3-sinf darsligi. T.: Novda Edutainment. 2023.-104 b.
6. R. A. Mavlonova, N. H. Rahmonqulova, K. O. Matnazarova, M. K. Shirinov, S. Hafizov. Umumiy pedagogika. - T.: « F a n v a texnologiya», 2018 y. - 528 b.
7. Saidnazarova Gulshan Bolta qizi, Tarbiya fanini o'qitish metodikasi. / [Matn]: o'quv qo'llanma. Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI” MCHJ ning Kamolot nashriyoti, 2024. – 232 b.
8. Z. K. Ismailova. Pedagogika. T.: “Moliya” 2007 y. 158 b.